

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	68-93
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpuolat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN I'ULOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Ochilova Guzаль Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MU'XIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI .....	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI .....	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR .....	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) .....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI .....	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA .....	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI .....	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI .....	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ .....	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA .....443-448

07.00.00-Тарих фанлари

**Qodirova Ra'no Mamirjonovna**

Farg'ona davlat universiteti  
Jahon tarixi kafedrasida tayanch doktoranti  
[Ranoimron16@gmail.com](mailto:Ranoimron16@gmail.com)

### **O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O'QITILISHI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola 1930-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada o'rganilayotgan davrda tarix fanida muomalada bo'lgan metodik qo'llanmalar, ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar borasida ma'lumotlar berilgan. Sovet organlari maktablarda tarix fanini o'qitish jarayonida o'z g'oyalari qanday hayotga tatbiq qilganligi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Shestakov, Turkiston ASSR, M.Asimov, Kruber, N.E.Bauman, pomeschchiklar va kupeslar, RSFSR maorif xalq komissarligi.

**Kadirova Rano Mamirjonovna**

Doctorate Student, Department  
of World History, Fergana State University

### **TEACHING HISTORY IN THE SECOND HALF OF THE 1930S IN SCHOOLS OF THE UZBEKISTAN SSR**

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of the specifics of teaching history in schools of the Uzbek SSR in the second half of the 1930s. Data is provided on the teaching aids used during that period and the changes that occurred in the teaching of history, considering changes in approaches. The study provided teaching aids on history and information about reforms in the education system. The forms and methods of work of Soviet bodies to implement their ideas in the process of teaching history are revealed.

**Key words:** Shestakov, Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, M. Azimov, Kruber, N. E. Bauman, landowners and merchants, People's Commissariat of Education of the RSFSR

**Кадирова Раъно Мамиржонова**

Докторант кафедры Всемирной истории  
Ферганского государственного университета

### **ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИИ В ШКОЛАХ УЗБЕКСКОЙ ССР ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ 30-Х ГОДОВ XX ВЕКА**

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу специфики преподавания истории в школах Узбекской ССР во второй половине 1930-х гг. Приводятся данные о использованных в тот период учебных пособиях, происшедших в преподавании истории изменениях, рассмотрению изменений в подходах. В ходе исследования были предоставлены методические пособия по истории и информация о реформах в системе образования. Раскрыты формы и методы работы советских органов по претворению в жизнь своих идей в процессе преподавания истории.

**Ключевые слова:** Шестаков, Туркестанская АССР, М. Азимов, Крубер, Н. Е. Бауман, помещики и купцы, Наркомпрос просвещения РСФСР.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N09>

## **Kirish**

O'zbekistonda mustaqillik yillarida sovet hokimiyatining respublikada amalga oshirgan ta'lim sohasidagi siyosati va uning natijalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda maktablarda tarix ta'lim tizimining vujudga kelishi va uning shakllanishi muammosiga doir ayrim uzuq-yuluq uchraydi. Ammo mazkur masala alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Vaholanki, XX asrning 20-40-yillarida Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan "madaniy inqilob", savodsizlikni tugatish va tarix fanini o'qitishni yo'lga qo'yish kabi siyosiy jarayonlar ta'lim, ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati kabi jihatlarni tadqiq etish g'oyat dolzarb vazifalardan sanaladi. Zero aynan shu davrda totalitar g'oya va keskin sinfiy kurash g'oyasiga asoslangan ta'limning sovet modeliga asos solindi. Ushbu mavzuni o'rganish O'zbekiston tarixi fanidagi o'ziga xos bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarda milliy maorif tizimi tarixini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Mazkur mavzuga bag'ishlangan ishlarni asosan sovet davrida yaratilgan asarlar tashkil etadi. Ular qatoriga "Бошланғич мактаб программалари" [6]; "Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1949-йиллар)" [9], "15 yil ichida O'zbekiston xalq maorifi.A.Umarov umumiy tahriri ostida" [3], I.K.Kadirovning "Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана" [7]; shuningdek, "Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар)"[8] kabi asarlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur maqolani tayyorlashda biz ushbu nashrlardan foydalandik.

Maqolada keltirilgan faktik ma'lumotlarni asosan arxiv ma'lumotlari tashkil etadi. O'zbekiston Milliy arxividagi R-2748 fondining 1-ro'yxat 1074,10170-yig'majildilardagi hujjatlardan [4;5] hamda mazkur fondda saqlanayotgan Inoyatovning "О стабильной программе и учебники по истории" nomli maqolasidan foydalanildi.

Ish jarayonida hartomonlamalik, tarixiylik, obyektivlik va xolislik tamoyillaridan, shuningdek, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

## **Muhokama**

1917-yildagi Oktabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar maorif sohasida eski tizimni tugatish va ta'limining sovet modelini yaratishga jiddiy kirishdilar. Ushbu modelning asosiy belgilarini 1936-yilda taniqli metodist M.Asimov quyidagicha bayon etgan edi: "Tarix bizning maktablarimizda yosh avlodni kommunistik tarbiyalashda yetakchi mavzulardan biridir. Ikki tizim – kapitalizm va sotsializm o'rtasidagi ziddiyat kuchayganligi sababli, maktablarimizdagi tarix alohida ahamiyatga ega" [5:b-14].

Ayni paytda sovet hukumatining ta'lim borasidagi eng asosiy maqsadi sovet tipidagi boshlang'ich va o'rta maktablarni tashkil etish va ularni darslik kitoblar bilan ta'minlash edi. Dastlab Turkiston ASSRda tashkil etilgan sovet maktablarida jadid hamda rus-tuzem maktablarida qo'llanilgan darsliklardan foydalanildi. Ko'p hollarda ushbu kitoblar tatar tilida chop etilgan edi. Rus tilidadan tarjima qilingan darsliklarni chop etishdagi asosiy muammo o'lkada poligrafiya sohasining yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq edi. Kitoblar qog'oz tanqisligi tufayli 1917-yilga qadar amalda bo'lgan savdo etiketlari va reklama qog'oz lariga

litografiya bosmaxonalarida chop etilardi. Natijada baʼzan kitob varagʻining orqa tomonida oldin bosilgan baʼzi maʼlumotlar ham saqlanib qolardi. Lekin mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, rus tilida chop etilgan darsliklar oʻzbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Masalan, oʻsha davrda Kruberning “Boshlangʻich geografiya”, Valishevaning “Arifmetika” darsliklari tarjima qilingan. Bundan tashqari, T.N.Qori-Niyoziyning “Tabiat boʻlagi” nomli nomli maktab oʻqituvchilari uchun moʻljallangan qoʻllanmasi chop etilgan. Ayni vaqtda Toshkent va Samarqandda oʻzbek tilida, Samarqandda tojik tilida, Toshkentda esa qozoq tilida alifbo kitoblari nashr etiladi. Darsliklarni chop etish asosan Maorif xalq komissarligi vakolatida edi. Koʻrilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, maktablar uchun darsliklar yetarli boʻlmagan [1: b-65].

1930-yil 14-avgustda SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti boshlangʻich umumiy majburiy taʼlimni joriy qilish haqida qaror chiqardilar. 1930-1931-oʻquv yilidan boshlab 8-9-10 yoshli bolalarga umumiy majburiy taʼlim berish, 1931-1932- oʻquv yilidan esa 11 yoshgacha boʻlgan bolalarga boshlangʻich majburiy taʼlim berish joriy qilindi. Boshlangʻich maktab kursini oʻtmagan 11-15 yoshli oʻsmirlar uchun 1-2 yillik qisqa muddatli maktablar tashkil qilindi. Shu yillardan boshlab sanoat shaharlarida, fabrika-zavod rayonlarida va ishchi posyolkalarida 1930-yilda boshlangʻich maktabni tamomlagan oʻsmirlarni 7 yillik maktablarda majburiy oʻqitish belgilandi [9: b-35]. 1933-1934-oʻquv yilida respublikada 298 ta yetti yillik va atigi 35 ta oʻrta maktab bor edi. 1938-39 oʻquv yilida esa yetti yillik maktablar soni 1 376 taga, oʻrta maktablar 292 taga yetdi [9: b-37].

1934-yilda 16-mayda Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy qoʻmitasi va SSSR Xalq Komissarlari Soveti maktablarda fuqarolik tarixini oʻqitish toʻgʻrisida qaror chiqardi. Unda tarix fanini oʻqitish qoniqarsiz ahvolda ekanligi taʼkidlandi. Ushbu qarorda tarix oʻqituvchilari zimmasiga fanni oʻqitishda mavjud boʻlgan kamchiliklarni bartaraf etish vazifasi yuklatildi [8: b-43].

Stalin boshchiligidagi rahbariyat nafaqat oʻquv dasturlarini, balki taʼlim tizimini ham bir qolipga solishga urindi. Rahbariyatining asosiy gʻoyasi partiya siyosatini ogʻishmay bajaradigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi. Fikrlarimizga dalil sifatida 1930-yillarning 2-yarmida tarix va ijtimoiy fanlarni oʻqitish dasturlari va uslublari haqidagi ayrim maʼlumotlarni keltirib oʻtamiz.

### **Natija**

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP (b) Markaziy Komitetining 1934-yil 16-maydagi qarorida shunday yozilgan edi: “Oʻquvchilarning tarix kursini yaxshi oʻzlashtirish uchun hal qiluvchi shart – muhim tarixiy voqealarni, tarixda ish koʻrsatgan shaxslarni, xronologik sanalarni oʻquvchilarning yodlarida albatta mustahkamlab, tarixiy voqealarning tarixiy-xronologik izchil ifodalanishiga rioya qilishdan iboratdir. Tarixning faqat shunday kursigina oʻquvchi uchun zarur boʻlgan tarixiy materiallarning qulayligini, yaqqolligini va konkretligini taxmin qilishi mumkin. Faqat shu negizdagina tarixiy voqealarni oʻquvchini tarixni marksistcha tushunishga olib boradigan ravishda toʻgʻri tekshirish va toʻgʻri umumlashtirish mumkindir” [1: b-65].

Davr talabidan kelib chiqib, maktablarda tarixiy materialni oʻquvchiga tushunarli yoʻsinda yetkazilishi talab qilingan. Oʻquvchilar yerga bogʻlangan va barshchina qiynogʻini chekkan, oʻz xoʻjayiniga obrok toʻlagan va ozgina gunoh qilib qoʻysa, xoʻjayinidan oʻlguncha kaltak yegan dehqonni hamda shu krepostnoy dehqonning mehnati orqasidan kun koʻrgan

katta yer egalarining turmush tarzi haqida kerakli tasavvur va bilimga ega bo'lishlari shart bo'lgan. O'quvchilar Moskva ishchilarining qanday qilib barrikadalar qurganlari va bu barrikadalarni qo'riqlab, 1905-yil dekabrda podsho qo'shini bilan qahramonona kurashganini bilishlari kerak edi. Ular tarix darsida 1917-yil 25-oktyabrda Sovetlarning II syezdida Leninning sotsialistik revolyutsiya g'alaba qozonganligi to'g'risida so'zlagan nutqi haqida ma'lumot va tasavvurga ega bo'lishlari lozim bo'lgan [6: b-43].

O'qituvchilar boshlang'ich maktabda SSSR tarixini o'qitishda professor Shestakov tahriri ostida chiqqan "SSSR tarixining qisqa kursi" kitobidan foydalanishgan. Ushbu kitob VKP(b) Markaziy Komitetining bevosita homiyligi ostida chiqarilgan. Kitobdan asosan boshlang'ich maktab o'quvchilarining III va IV sinflari uchun darslik sifatida foydalanilgan. Davr pedagogikasi talabidan kelib chiqib, o'qituvchilardan faqatgina darslikda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha tarzda N.E.Baumanning qanday o'ldirilganligi va 1917-yilda Leninnig Rossiyaga qanday kelganligi kabi darslikda bo'lmagan boshqa talay ma'lumotlarni ham berib borishi kerakligi aytib o'tilgan [6: b-42].

Boshlang'ich maktabda SSSR tarixi kursini o'tish ikki yilga mo'ljallangan edi. III sinflarda tarix darsiga 40 soat belgilangan bo'lib, bu sinfda o'quvchilar kursning boshidan boshlab to Pyotr I gacha bo'lgan davr tarixini o'rganganlar. IV sinflarda esa tarix darsiga bir yil ichida 80 soat ajratilgan bo'lib, bu sinfda o'quvchilar Pyotr I dan boshlab kursning oxirigacha yetkazishlari kerak bo'lgan.

III sinf tarix fani o'quv dasturi 40 soatga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi shaklda taqsimlangan:

1. Qadimgi davrda bizning Vatanimiz – (6 soat);
2. Kiyev davlati - (8 soat);
3. Sharqiy Yevropa mongol istilochilarining hukmronligi ostida – (5 soat);
4. Rus davlatining vujudga kelishi – (2 soat);
5. Rus davlatining kengayishi – (3 soat);
6. XVII asrda dehqon urushlari va ezilgan xalqlarning qo'zg'olonlari – (9 soat);

IV sinfda esa o'quvchilar jami 80 soat tarix kursini o'rganishgan. Mavzular quyidagicha taqsimlangan:

1. XVIII asr Rossiyasi – pomeshchiklar va kupeslar imperiyasi –(7 soat);
2. Podsho Rossiyasi – Yevropa jandarmasi –(13 soat);
3. Podsho Rossiyasi kapitalizmning o'sishi – (12 soat);
4. Rossiyada birinchi burjua inqilobi – (12 soat);
5. Rossiyada ikkinchi burjua inqilobi mavzusi uchun – (3 soat);
6. Rossiyada Ulug' Oktabr sotsialistik inqilobi – (6 soati);
7. Xorijiy investitsiya.Grajdandar urushi – (11 soati);
8. Mamlakatning xo'jaligini tiklash sohasida tinch ishlashga ko'chish – (3 soat);
9. SSSR – g'alaba qilgan sotsializm mamlakatidir (8 soat).

Mazkur mavzular yakunlangach, yil oxirida 5 soat vaqt takrorlash uchun ajratilgan.

Qishloq maktablarining o'quv rejaları bo'yicha tarix uchun berilgan soatlar shahar maktablarinikiga qaraganda III sinflarda 8 soat, IV sinflarda esa 1 soat ortiq berilgan. O'qituvchi bu soatlarni mavzu bo'yicha takrorlash darslarida ishlatishi nazarda tutilgan [6: b-43].

Tarix fanidan tashqari ijtimoiy fan ham o'qitilib, bu fan uchun asosiy darslik B.Leviton va M.Ovsyannikovlar tomonidan tuzilgan "Içtimaiyat" kitobi bo'lgan. Ushbu darslik asosida 95 soat dars o'tilgan. Dasturda ko'rsatilgan 95 soat dars asosan 5 ta mavzuga bo'lingan. Asosiy e'tibor kommunistik partiya faoliyatiga, 1917-yilgi inqilobga, sotsializmga, qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta qurish hamda VKP(b) tarixi o'rganishga qaratilgan edi[4: b-4].

Fan dasturini tuzishda "yeterli yoritilmagan" masalalar sifatida 1905-1907-yillardagi inqilob jarayonida paydo bo'lgan Sovetlarga kim rahnamolik qilganligi, kimning fikri bilan sovetlarni tuzish g'oyasi paydo bo'lganligi, bundan tashqari, Vaqtli hukumat mavjud bo'lgan paytda sovetlar tarkibi kimlardan iborat ekanligi haqida aniq misollar yo'qligini sanab o'tishgan [2: b-9].

Hukumat qarorlarida tarix fanidan dars beruvchi o'qituvchi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga e'tibor qaratildi. 1934-yil 7-iyunda RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan "To'liq bo'lmagan o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlari tarix o'qituvchilarini qayta tayyorlash to'g'risida" gi qaror qabul qilindi. Moskva davlat universitetida tarix o'qituvchilari uchun bir yillik malaka oshirish kurslari tashkil etildi. 1936-yilda RSFSRning ta'lim xalq komissarligi huzurida o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Tarix ta'limi sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida davlat va maorif organlari ma'lum darajada yoshlarni kommunistik ideologiya ruhida tarbiyalashga, ularda "doimiy safarbarlikka tayyorlik hissi, ona-Vatanga cheksiz, faol muhabbat hissi"ni shakllantirishga muvaffaq bo'lishdi.

### **Xulosa**

XX asrning 30-yillarida O'zbekiston SSR maktab ta'lim tizimida tarix fanining o'rnini o'rganilishi borasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab yangi hukumat ta'lim sohasida islohotlarini amalga oshira boshladi. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy siyosiy maqsad ta'lim tizimi orqali butun yoshlar orasida sotsialistik g'oyalarni targ'ib etish va ularni sotsializm qurish ishiga faol jalb etish edi.

O'quv-tarbiya ishlari qanchalik siyosatlashtirilmasin, sovet maktablarining moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Darsliklar, o'quv qurollari, xususan, qalam, siyoh, daftar taqchil edi. Bundan tashqari, ta'lim tizimini tezlik bilan isloh qilish yo'lida mahalliy o'qituvchi kadrlarning yetishmasligi asosiy g'ov edi. Shuning uchun islohot jarayoni og'ir kechdi.

Maorif organlari va ilmiy muassasalar yangi o'quv darsliklari yaratishga asosiy e'tibor qaratdilar. Maktablar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan qator boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ammo bulardan qat'i nazar, mutlaqo yangi bo'lgan bu tizimini O'zbekiston sharoitida joriy etish osonlikcha kechmadi. Boz ustiga o'quvchilar intizomining pastligi o'quv jarayonini bir maromda olib borish imkoniyatini bermasdi. Sovet hukumati ta'lim sohasidagi barcha erkinliklarni bekor qilib, maktab va oliy ta'lim sohasini ham totalitar tizimga bog'ladi. Bu esa ta'lim tizimi o'zining endi shakllanish pallasida deformatsiyaga uchrashiga olib keldi.

Xalq ta'limi o'quv dasturlari butunlay markazga bog'lanib, milliy an'analarga e'tibor berilmadi. Milliy dastur tuzish va uni amalga oshirishga harakat qilgan milliy taraqqiyparvarlar qatao'on siyosatiga uchradi.

Maktablardagi tarix fanining asosiy g'oyasi aynan kommunistik mafkurani qo'llab-quvvatlashga, partiya siyosatini og'ishmay amalga oshiradigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, bu davrda maorif sohasidagi islohotlar hamda tarix ta'lim tizimini yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilgan ishlar jiddiy nuqsonlardan xoli bo'lmaganligini qayd etish kerak bo'ladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Kadirova R.M. Teaching History and Social Sciences in the Schools of The Uzbekistan SSR (1932-1933 Years) // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 19. April 2023.P. 64-68.
2. Kadyrova R.M. Study of history in schools of the Uzbekistan SSR in 1936-1937 (based on m. Asimov's report materials)// Asian Journal of Multidimensional Research.Vol. 11, Issue 8, August 2022. – P. 50-53.
3. “15 yil ichida O'zbekiston xalq maorifi (1924-1939)” A.Umarov umumiy tahriri ostida.- T.,1939.-188 b
4. O'zMA. R-2748-fond. 1-ro'yxat. 1074-y.j. B.-9. Иноятлов “О стабильной программе и учебнике по истории”
5. O'zMA R.2748-fond; 1-ro'yxat; 1070-ish. Hisobot. Asimov M. 1936-1937 yillarda O'zSSR maktablarida tarix bo'yicha o'quv mashg'ulotlari natijalari to'g'risida.
6. Бошланғич мактаб программалари.ЎзССР МХК мактаблар бошқармаси таҳрири остида – Тошкент:Учпедгиз,1939. – 56 б
7. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. – 186 с.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). Бош муҳаррир И.Мўминов. – Тошкент, 1971. – 652 б.
9. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1949). А.Муродхўжаев таҳрири остида. – Тошкент,1949. – 125 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).